

**«ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR: BUYUK SALTANAT VA
UMUMINSONIY TAMADDUN ASOSCHISI»**

Abdullajanova Ziyoda Javlon qizi

TDYU huzuridagi Namangan viloyati akademik

litseyning 105-guruh o'quvchisi

ziyodaabdullajanova146@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishi buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda va ensiklopedik olim Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va uning jahon tamadduniga qo'shgan beqiyos hissasini keng qamrovli tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada Boburning Movarounnahrda siyosiy kurashlari, Kobul amirligi va Hindistonda Buyuk Boburiylar saltanatining barpo etilishi jarayonlari chuqur o'rganiladi. Shuningdek, "Boburnoma" asarining tarixshunoslik, geografiya va etnografiya fanlari rivojida o'rni, shoir lirik merosidagi vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari yangi ilmiy qarashlar asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Bobur, Temuriylar, Boburiylar sulolasi, "Boburnoma", Panipat jangi, Movarounnahr, Hindiston, "Xatti Boburiy", "Mubayyin", "Muxtasar", adabiyotshunoslik, bog'dorchilik, chorbog', ijtimoiy boshqaruv.*

Аннотация: *Данная исследовательская работа посвящена всестороннему анализу жизни великого государственного деятеля, искусного полководца и ученого-энциклопедиста Захириддина Мухаммада Бабура. В статье глубоко изучаются политическая борьба Бабура в Мавераннахре, Кабульское эмирство и процессы создания империи Великих Моголов в Индии. Также на основе новых научных взглядов освещаются роль «Бабур-наме» в развитии историографии, географии и этнографии, идеи патриотизма и гуманизма в лирическом наследии поэта.*

Ключевые слова: *Бабур, Тимуриды, династия Бабуридов, «Бабур-наме», битва при Панипате, Мавераннахр, Индия, «Хатти Бабури», «Мубаййин», «Мухтасар», литературоведение, садоводство, чорбог, социальное управление.*

Annotation: *This research paper is devoted to a comprehensive analysis of the life of the great statesman, skilled commander, and encyclopedic scholar Zahiriddin Muhammad Babur. The article deeply explores Babur's political struggles in Mavarannahr, the Kabul Emirate, and the processes of establishing the Great Mughal Empire in India. Furthermore, the role of "Baburnama" in the development of historiography, geography, and ethnography, as well as the ideas of patriotism and humanism in the poet's lyrical heritage, are highlighted based on new scientific perspectives.*

Key words: *Babur, Timurids, Baburid dynasty, "Baburnama", Battle of Panipat, Mavarannahr, India, "Xatti Boburiy", "Mubayyin", "Muxtasar", literary studies, gardening, charbagh, social management.*

Insoniyat tarixi davomida siyosiy hokimiyat bilan ma'naviy yuksaklikni, qilich bilan qalamni birdek mahorat bilan boshqargan shaxslar kam uchraydi. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) ana shunday noyob va qomusiy siymolardan biridir. Amir Temur asos solgan buyuk saltanatning munosib vorisi bo'lgan Bobur, o'rta asrlarning eng murakkab davrida yashadi va faoliyat yuritdi. Uning hayot yo'li Andijonning yam-yashil vodiylaridan boshlanib, Hindistonning sarhadlarigacha cho'zilgan ziddiyatli, ammo shonli tarixdir.

U 12 yoshida taxtga o'tirgan boshlab, umrining oxirigacha tinimsiz kurashlar ichida yashadi. Biroq, bu kurashlar uni faqat harbiy yoki siyosatchi qilib qo'ymadi; u har bir qadami, har bir g'alabasi va mag'lubiyatini tahlil qiluvchi faylasuf, har bir o'simlikni sevuvchi tabiatshunos va har bir satrida dardini kuylaydigan shoir bo'lib qoldi¹.

Bugungi kunda Bobur merosini o'rganish nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo sharqshunosligi uchun dolzarb mavzu hisoblanadi. Uning davlatchilik etikasi, diniy bag'rikengligi va ilm-fanga bo'lgan cheksiz hurmati hozirgi globallashuv davrida ham muhim hayotiy dars bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqola Boburning serqirra faoliyatini tarixiy, adabiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan keng ko'lamda yoritishni maqsad qilgan.

1. Boburning Movarounnahr va Kobuldagi siyosiy kurashlari.

Boburning ilk siyosiy faoliyati Temuriylar o'rtasidagi ichki nizolar davriga to'g'ri keldi. U Samarqandni uch marta egallagan bo'lsa-da, Shayboniyxon boshchiligidagi kuchli raqibga qarshi tura olmadi. Ammo bu mag'lubiyatlar Boburning irodasini bukkancha yo'q. 1504-yilda bir guruh sadoqatli askarlari bilan Kobulni egallashi uning yangi strategik rejalari poydevori bo'ldi. Kobul amirligi davrida Bobur mintaqadagi xalqlar bilan til topishish, infratuzilmani yaxshilash va harbiy islohotlar o'tkazish bo'yicha ulkan tajriba to'pladi.

2. Hindiston istilosi va Panipat jangi tahlili.

1526-yilgi Panipat jangi harbiy san'at tarixida alohida o'rin tutadi. Boburning 12 minglik qo'shini bilan Ibrohim Lodiyning 100 minglik armiyasi ustidan qozongan g'alabasi shunchaki tasodif emas edi. Bobur bu jangda ilk bor artilleriya (to'plar) va multiqlarni Markaziy Osiyo otliq qo'shinlari taktikasi bilan uyg'unlashtirdi. "Tulug'ma" (qanotdan zarba berish) uslubi raqibning son jihatidan ustunligini yo'qqa chiqardi. Bu g'alaba Hindistonda 332 yil davom etgan Buyuk Boburiylar saltanatining boshlanishi edi.²

3. Adabiy va ilmiy merosi:

1. "Boburnoma" — jahon adabiyoti va tarixshunosligining durdonasi

"Boburnoma" — bu shunchaki xotiralar kitobi emas, balki XVI asrning mukammal ensiklopediyasidir.³ Asarda muallif o'ziga nisbatan o'ta qattiqqo'l va samimiy munosabatda bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini adabiyotshunoslikda adib boshidan o'tkazgan kunlar yilnomasi sifatida baholashadi. Ammo shoir — Bobur she'riyati muallifning ichki dunyosini bor shiddati bilan o'quvchiga yetkazuvchi noyob ma'naviy xazinadir. Bobur ruboiylarida ham olam-jahon ma'no ifodalangan. Ular "Boburnoma" bilan hamohang, uni mazmunan to'ldiradi. Agar Bobur davri, undan oldingi shoirlar ijodida ruboiy

¹ 1. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma" (Tabdil qilingan va ilmiy nashr). – Toshkent: Sharq, 2008.

² 2. Azimjonova S. "Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi faoliyati va Boburiylar davlati". – Toshkent: Fan, 1966.

³ 3. Hasanov S. "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi". – Toshkent: Sharq, 2014.

janrida an'anaviy ishq, oshiq va ma'shuq, ayrim hollarda ijtimoiy masalalar qalamga olingan bo'lsa, Zahiriddin Bobur ruboiylarida inson ichki kechinmalarining rango-rang jilolari, uning muammolari teran aks etganini ko'ramiz. Zahiriddin Bobur tabiatidagi hayotdan imkon qadar bahramand bo'lish, uning go'zalligini anglash va nashidasini surish odati kishini hayratga soladi. 12 yoshidan ot ustidan tushmasdan bobosi Amir Temur saltanatini tiklash uchun kurash olib borgan, muhorabalarda bo'lgan shaxs bahor nashidasidan ham bahramandlik baxtini tuyadi: Xotirni bahor faslida gasht oladur, Ko'z nurini rangi lolayu dasht oladur. Xush ulki, talalarda yurub sayr etsa, Bu fasldakim latifu dilkash taladur. Shoir ruboiylarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — unda kichik syujet, lirik qahramon bor. Quyidagi ruboiyda lirik qahramonning unchalik xurram bo'lmagan kayfiyatini mohir naqqoshdan isloh etishini so'ragani, iltijosi mavjud. Bir qaraganda, bu to'rt misra she'r oson mutolaa qilinadigandek, ammo muallifning shu to'rt misraga syujet, teran fikrni jo etganiga tasanno deysan, kishi.

2. Vatan sog'inchi va insoniylik falsafasi: Bobur lirikasining badiiy jozibasi

Bobur lirikasining asosi – samimiylilik. Uning she'rlarida shohona kibr emas, balki oddiy insoniy dard, ayriliq va sog'inch ufurib turadi.

Vatan talqini: Bobur adabiyotimizda vatan sog'inchini eng yuksak pardalarda kuylagan shoirdir. "Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi" misralari bilan boshlanuvchi g'azallari uning butun hayotiy fojeasini – vatandan ayro tushgan shohning ko'ngil iztiroblarini ifodalaydi. U Hindistonda yashab, saltanatni boshqarsa-da, ko'ngli hamon Andijonning qovuni va Samarqandning havosini qumsab yashadi.

Insonparvarlik (Gumanizm): Bobur she'riyatida komil inson g'oyasi markaziy o'rin tutadi. U insonni qadr-qimmatini uning mansabi bilan emas, balki uning odobi, ilmi va saxiyligi bilan o'lchaydi. Shoirning "Har kimki vafo qilsa, vafo topgusidir, har kimki jafo qilsa, jafo topgusidir" degan misralari umumbashariy axloqiy qonunga aylangan.⁴

Badiiy mahorat: Bobur g'azal va ruboiy janrida o'z maktabini yaratdi. Uning ruboiylari falsafiy teranligi va tilining soddaligi bilan ajralib turadi. Shoir turkiy tilning barcha imkoniyatlaridan foydalanib, o'z tuyg'ularini nihoyatda lo'nda va ta'sirchan ifodalagan.

3. Bobur — qomusiy olim: "Mubayyin" va "Xatti Boburiy" asarlarining ilmiy tahlili

Bobur nafaqat adib, balki o'z davrining yetuk huquqshunosi, tilshunosi va nazariyotchi olimi bo'lgan.

"Mubayyin" (Bayon etilgan): Bu asar islom huquqi (fiqh)ga oid bo'lib, masnaviy yo'lida yozilgan. Unda ijtimoiy hayot, soliq tizimi, zakot va haj amallari she'riy tilda tushuntiriladi. Bobur bu asari orqali davlat boshqaruvida adolatni qaror toptirishning diniy va huquqiy asoslarini ko'rsatib bergan. Bu asar o'sha davr madrasalarida asosiy qo'llanmalardan biri bo'lgan.

"Xatti Boburiy": Bobur arab yozuvidagi ayrim kamchiliklarni isloh qilish maqsadida yangi alifbo – "Xatti Boburiy"ni kashf etdi. Bu alifbo turkiy tillarning fonetik xususiyatlarini aniq ifodalashga qaratilgan edi. Garchi bu xat keng ommalashib ketmagan bo'lsa-da, Boburning tilshunos sifatidagi intilishi va turkiy tilni rivojlantirishga bo'lgan sadoqatini isbotlaydi.

⁴ Qayumov A. "Bobur ijodiyoti". – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1985.

"Muxtasar": Shoirning aruz vazni nazariyasiga bag'ishlangan bu asari o'zbek she'riyatshunosligida o'ta muhim o'rin tutadi. Unda 800 dan ortiq aruz vazni tahlil qilingan bo'lib, bu Boburning matematika va musiqa ilmidan ham xabardorligidan dalolat beradi.⁵

4. Nafosat va adolat timsoli: Bobur ijodida tabiat va jamiyat uyg'unligi

Boburning hayotiy falsafasi – go'zallik (nafosat) va tartib (adolat) uyg'unligiga asoslangan.

Tabiatga muhabbat: Bobur tabiatni shunchaki tomosha qiluvchi emas, balki uni o'zgartiruvchi va bunyodkor shaxs edi. U Hindistonda barpo etgan "Chorbog'"lar (kvadrat shaklidagi bog'lar) – inson tafakkuri va tabiat nafosatining birlashuvidir. Bobur bog'larida simmetriya va intizom ustuvor bo'lgan, bu esa uning davlat boshqaruvidagi qat'iyatiga ham mos edi.

Adolatli jamiyat g'oyasi: Bobur ijodida davlatning mustahkamligi bevosita adolatga bog'lanadi. U o'zining siyosiy vasiyatlarida va asarlarida hukmdorni xalqning xizmatchisi sifatida tasvirlaydi. Uning fikricha, saltanat faqat "tig'" (kuch) bilan emas, balki "tadbir" (aql) va "adl" (adolat) bilan boshqarilishi lozim.⁶

Uyg'unlik: Bobur asarlarida tabiatdagi tartib va jamiyatdagi intizom bir-birini to'ldiradi. U o'zi qurdigan bog'larda xalqning dam olishi, olimlarning suhbat qurishi uchun sharoit yaratgan. Bu esa uning madaniyatni jamiyatning ajralmas qismi deb bilganligini ko'rsatadi.

1. Geografik ma'lumotlar: Bobur O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning daryolari, tog'lari va iqlimini batafsil tasvirlaydi⁷.

2. Etnografiya: Turli xalqlarning urf-odatlarini, kiyinishi va ijtimoiy tabaqalanishi haqida noyob ma'lumotlar beradi.

3. Tabiatshunoslik: Bobur botanika sohasida ham mutaxassis bo'lgan. U Hindistonga Markaziy Osiyo qovunlari va uzumlarini olib kelish, ularni iqlimlashtirish bilan shug'ullangan.

4. Boburning ilmiy va diniy-ma'rifiy asarlari

Bobur ijodiyoti faqat lirika va tarixdan iborat emas:

5. "Mubayyin": Islom huquqi (fiqh) bo'yicha yozilgan bu asar o'z davrida davlat boshqaruvi va adliya tizimi uchun qo'llanma vazifasini o'tagan.⁸

6. "Xatti Boburiy": Arab yozuvini turkiy tillar fonetikasiga moslashtirish, savodxonlikni oshirish maqsadida yaratilgan yangi alifbo.

7. "Muxtasar": Aruz vazni nazariyasi bo'yicha Alisher Navoiydan keyingi eng mukammal tadqiqot hisoblanadi.

8. Bobur lirikasida Vatan va Insoniy ishq talqini

Bobur g'azallari va ruboiylari inson qalbining eng nozik torlarini chertadi. Uning she'riyatida vatanni sog'inish ("Vatanimni sog'indim") motivlari bilan bir qatorda, axloqiy poklik, do'stlikka sadoqat va dunyoning o'tkinchiligi haqidagi falsafiy o'ylar ustuvorlik qiladi.

⁵ . Thackston W. M. "The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor". – Modern Library, 2002.

⁶ . Ziyov A. "O'zbek davlatchiligi tarixi". – Toshkent: Sharq, 2001.

⁷ 7. Schimmel A. "The Empire of the Great Mughals: History, Art and Culture". – University of Chicago Press, 2004.

⁸ Sultonov X. "Boburning tushlari". – Toshkent: Ma'naviyat, 1996.

Uning ruboiylari o'zining ixchamligi va mantiqiy tugalligi bilan jahon she'riyatining eng yaxshi namunalariga tenglashadi.

XULOSA QILIB AYTGANDA

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va merosi — bu inson irodasining va aql-zakovatining tantanasidir. U o'zidan keyingi avlodlarga nafaqat bepoyon bir saltanatni, balki ma'naviy boyliklar xazinasini qoldirdi. Bobur asos solgan Boburiylar sulolasi Hindiston tarixida "Oltin asr"ni boshlab berdi: me'morchilikda Tojmahal kabi obidalar, tasviriy san'atda miniatyura maktabi, adabiyotda esa forsiy va turkiy tillarning uyg'unlashuvi shular jumlasidandir.

Bobur shaxsiyati bizga shuni o'rgatadiki, haqiqiy hukmdor nafaqat yerlarni, balki insonlar qalbini ham ilm, adolat va madaniyat bilan zabt etishi kerak. Uning nomi asrlar osha o'zbek xalqining faxri bo'lib, jahon madaniyati sahifalarida oltin harflar bilan muhrlanib qolaveradi.

Tarixiy va ilmiy meros: Boburning jahon tan olgan "Boburnoma" asari nafaqat shaxsiy xotiralar, balki XVI asrning ijtimoiy-siyosiy hayoti, geografiyasi va tabiatini o'rganishda beqiyos ensiklopedik manba hisoblanadi.

Davlatchilik va adolat: Bobur Hindistonda asos solgan Boburiylar saltanati mintaqada uch asrdan ortiq vaqt davomida madaniyat, ilm-fan va me'morchilik gullab-yashnashiga zamin yaratdi. Uning boshqaruv falsafasi kuchli markazlashgan davlat va adolat tamoyillariga asoslangan edi.

Ma'naviy va adabiy quvvat: Shoir lirikasidagi vatan sog'inchi, sadoqat va insoniylik g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, milliy o'zligimizni anglashda muhim mayoq bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy yangiliklar: Uning "Xatti Boburiy", "Mubayyin" va "Muxtasar" kabi asarlari Boburning tilshunoslik, huquqshunoslik va she'riyat nazariyasi sohalarida ham yirik olim bo'lganini isbotlaydi.

Bobur shaxsiyati bizga shuni o'rgatadiki, haqiqiy hukmdor nafaqat yerlarni, balki insonlar qalbini ham ilm, adolat va madaniyat bilan zabt etishi kerak. Uning nomi asrlar osha o'zbek xalqining g'ururi va jahon madaniyati sahifalarida oltin harflar bilan muhrlangan o'lmas siymo bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma" (Tabdil qilingan va ilmiy nashr). – Toshkent: Sharq, 2008.
2. Azimjonova S. "Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi faoliyati va Boburiylar davlati". – Toshkent: Fan, 1966.
3. Hasanov S. "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi". – Toshkent: Sharq, 2014.
4. Qayumov A. "Bobur ijodiyoti". – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1985.
5. Thackston W. M. "The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor". – Modern Library, 2002.

6. Ziyo A. "O‘zbek davlatchiligi tarixi". – Toshkent: Sharq, 2001.
7. Schimmel A. "The Empire of the Great Mughals: History, Art and Culture". – University of Chicago Press, 2004.
8. Sultonov X. "Boburning tushlari". – Toshkent: Ma’naviyat, 1996.